

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

MUTALOV SAIDAKBAR XAMIDULLO O'G'LI

**TALABALARDA LIDERLIK QOBILİYATINI RIVOJLANTIRISHNING
METODOLOGIK-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of
philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

Mutalov Saidakbar Xamidullo o‘g‘li

Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....3

Муталов Саидакбар Хамидулло угли

Совершенствование методологических и методических основ развития лидерских способностей студентов.....27

Mutalov Saidakbar Khamidullo ugli

Improving the methodological and methodical foundations of development of leadership skills in students.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

MUTALOV SAIDAKBAR XAMIDULLO O'G'LI

**TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING
METODOLOGIK-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4PhD/Ped4004 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Inoyatov Ulug'bek Ilyasovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yuzlikayev Farit Rafailovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Egamberdiyeva Turg'unoy Ahmadjonovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "13" 07 kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20; faks: (+99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz)

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 203-01-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "01" 07 kuni tarqatildi.
(2024-yil "01" 07 dagi 2 - raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

A.S.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Ya.U.Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida XXI asr ko'nikmalari (moslashuvchan va maxsus) asosida bo'lajak mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilg'or va zamonaviy trendlarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday zamonaviy ta'limiy trendlardan biri talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish hisoblanib, ularda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, yetakchilik, tashkilotchilik sifatlarini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Student Affairs Administrators in Higher Education – (AQSh), International Young Leaders Award – (Buyuk Britaniya), Global Leadership and High Performance Team Management Specialist (Ispaniya), Developing Your Leadership Style (Fransiya), Leadership and Communication Workshop (Birlashgan Arab Amirliklari), First time managers – (Malayziya), Student Leadership Programme – (Xitoy), Student Leadership Development Programme – (Singapur) kabi liderlik dasturlari asosida talabalarning tashkilotchilik identifikatori uchun poydevor bo'lib xizmat qiladigan transformativ tajribalar va amaliy mashg'ulotlar ko'magida yangi liderlar sinfi shakllanishi uchun o'ziga xos ta'lim maydoni yaratilmoqda.

Dunyoda talabalarning o'zini-o'zi mustaqil rivojlantirishga doir shaxsiy kompetensiyalarini faollashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim ijtimoiy-ma'naviy muhitida talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning nazariy, metodologik va uslubiy asoslarini takomillashtirish, mazkur qobiliyatning ish faoliyatdagi samaradorlik mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalarini raqamli transformatsiyaga mos tarzda aniqlashtirish, kommunikativ va tashkilotchilik ko'nikmalarini mustahkamlashning pedagogik mexanizmlarini modifikatsiya qilish dolzarb o'ringa ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, ichki va tashqi sotsiumda shaxsiy faollikni namoyon etishga doir amaliy faoliyatni tashkil etish, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy imijni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini modernizatsiya qilishga alohida urg'u qaratilmoqda.

Respublikamizda ham oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini oshirish, ilg'or xorijiy tajribadan foydalangan holda, tizimni yanada isloh qilish, fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish chora-tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, pedagogik jarayonlarda ta'lim-tarbiyaning maqbul shakl va metodlari asosida talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, liderlik va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirib borishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. "Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etadigan, xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qiladigan bilimli, tashabbuskor, ishbilarmon, halol va fidoyi yosh rahbar kadrlarni tarbiyalash, zaxirasini yaratish va ularni davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining mas'ul lavozimlariga tavsiya etish"¹ kabi ustuvor vazifalar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 27-son, 607-modda.

talabalardagi potensial resurslarni rivojlantirish va lider sifatida tarbiyalashning muhim ijtimoiy-pedagogik zarurat ekanligini ko'rsatib bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan yoshlar, xususan, talabalarning faolligini oshirish, ularda liderlik qobiliyatini yanada rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda komil inson tarbiyasi, shaxsda intellektual, ma'naviy-axloqiy, yetakchilik va boshqaruvga oid sifatlarni rivojlantirishning siyosiy, falsafiy, ijtimoiy-pedagogik tizimi R.X.Djurayev, S.T.Turg'unov, Q.Q.Quronboyev, O.Musurmonova, U.I.Inoyatov, N.N.Jamilova, B.Sh.Shermuhhammadov, M.T.Mirsoliyeva, B.X.Xodjayev, Y.U.Ismadiyarov va A.S.Djurayevlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik, psixologik jihatlari M.J.Mutalipova, X.O.Qodirov, M.M.Zufarova, F.M.Komilova, G.Yeldasheva, D.S.Kattaxanova hamda talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda liderga xos fazilatlarni tarbiyalashning pedagogik masalalari M.Ochilov, G.N.Ibragimova, M.Rahmanova, O'.Utanov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan I.V.Drigina, O.V.Yevtixov, A.N.Zankovskiy, A.G.Romanovskiy, T.V.Bendas, A.V.Ponomarevlarning tadqiqotlarida shaxsda liderlik qobiliyatining pedagogik-psixologik aspektlarining nazariy-metodik asoslari o'z aksini topgan. D.C.Vyunova, A.V.Zorina, A.I.Davletova, L.P.Shigapova, A.B.Golub, Z.N.Kaxrimanov, Y.V.Selezneva, G.M.Kozibakova, N.K.Abdigaziyeva kabi olimlar tomonidan ta'lim-tarbiya muhitida talabalarning liderlik qobiliyatini amaliy-pedagogik mexanizmlar asosida rivojlantirish masalalari bayon etilgan.

Xorijlik olimlar R.M.Stogdill, A.H.Maslow, J.M.Burns, C.R.Rogers, D.I.Goleman, W.G.Bennis, S.R.Komives, J.Baldoni, P.G.Northouse, S.Hamdanlar tomonidan talabalardagi liderlik masalalarining pedagogik-psixologik jihatlarini tadqiq etish borasida izlanishlar olib borilgan.

Ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy-gumanitar soha olimlari tomonidan liderlik qobiliyatini rivojlantirish masalasida ilmiy izlanishlar olib borilganiga qaramay, zamonaviy oliy ta'lim sharoitida talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, metodologik imkoniyatlari va ijtimoiy ahamiyatini maxsus tadqiq etish, uslubiy asoslari va mavjud mexanizmlarini takomillashtirishga oid uslub va vositalarni ishlab chiqish dolzarb, nazariy, ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universitetining 2021–2022-yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Innovatsiyalarni ta'lim tizimiga joriy etishning muammo va yechimlari" ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasasi talabalarida liderlik qobiliyatini rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mohiyatini aniqlashtirish va metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish;

talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishga doir kompetensiyalar tizimini aniqlashtirish;

talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi kompleks omillarni yoritib berish;

talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirish modelini yaratish va pedagogik mexanizmini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasasi talabalarida liderlik qobiliyatini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda muammoga doir nazariy, pedagogik, psixologik, siyosiy, falsafiy, ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil qilish, diagnostik (test, suhbat, baholash), monitoring, so'rovnoma, pedagogik eksperiment va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mohiyati shaxslararo munosabatlarda subyektiv faollikka qaratilgan samarali hamkorlikdagi faoliyatni qo'llab-quvvatlashni talab etuvchi tashabbuskorlik, qat'iy pozitsiyaga egalik, jamoaviy qarorlar qabul qilish, nostandart vaziyatlarda oqilona qarorlar qabul qilish kabi moslashuvchan va maxsus ko'nikmalarni intensiv tarkib toptirish jarayonlarining dinamikligiga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishga doir axloqiy, ijodiy, kasbiy, kommunikativ, tashkiliy kompetensiyalar tizimi mazkur jarayon tuzilmasiga xos

motivatsion-shaxsiy (barqaror ijobiy motivatsiya), operatsion-faoliyatli (zarur sifatlarga ega bo'lish), nazorat-baholovchi (liderlik sifatlari va kasbiy faoliyat talablari uyg'unligini ta'minlash) komponentlarning qayta aloqaga kirishuv darajasi identivligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi kompleks omillar (ijtimoiy-pedagogik, psixologik-korreksion, ijodiy-texnologik, tarbiyaviy-ma'naviy, kommunikativ) mazkur jarayonni amalga oshiruvchi to'siqlarni (psixologik, individual, muhit bilan bog'liq) bosqichma-bosqich korreksiyalash mexanizmining produktivlik darajasi validligini bevosita hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirish modelining tashkiliy-jarayonli komponenti "talaba – tyutor – o'qituvchi", "talabalar guruhi – tyutor – o'qituvchi" tizimidagi o'zaro birgalikdagi harakatni (kooperatsiya) shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishga qaratilgan rolli o'yinlar, munozara va disputlarni kouch-trening texnologiyasi tamoyillari asosida adaptiv loyihalash tuzilmasini qat'iy belgilash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishning nazariy, metodologik-uslubiy asoslari, pedagogik shart-sharoitlari va ijtimoiy ahamiyati aniqlashtirilgan;

fasilitatsion va akmeologik yondashuvlar asosida talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari takomillashtirilgan;

pedagogik kouching asosida talabalarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga doir shaxsiy rivojlantirish dasturlari va treninglar majmui ishlab chiqilgan;

talabalarining liderlik qobiliyatini individual rivojlantirishning motivatsion faollik tizimi va baholash indikatorlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, ilmiy asoslanganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "lider", "liderlik qobiliyati", "moslashuvchan ko'nikmalar" (soft skills) kabi tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlashtirilganligi va nazariy yondashuvlar bilan boyitilganligi, talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning metodologik asoslari va pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarning asoslanganligi, tadqiqot muammosining ijobiy yechimiga doir ilmiy-metodik tavsiyalar va pedagogik model ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot doirasidagi natijalarning amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlarida talabalarining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish modelining ishlab chiqilganligi, yoshlar bilan ishlash tizimining faoliyat samaradorligini oshirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning metodik imkoniyatlari kengaytirilganligi, talabalarining o'zini-o'zi boshqarish tizimining faoliyatini takomillashtirilganligi bilan izohlanib, akademik guruh sardorlari, yoshlar yetakchilari, tyutorlar, yoshlar

bilan ishlash yoʻnalishidagi pedagog-xodimlarning liderlik kompetensiyasini mustahkamlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mohiyati shaxslararo munosabatlarda subyektiv faollikka qaratilgan samarali hamkorlikdagi faoliyatni qoʻllab-quvvatlashni talab etuvchi tashabbuskorlik, qatʼiy pozitsiyaga egalik, jamoaviy qarorlar qabul qilish, nostandart vaziyatlarda oqilona qarorlar qabul qilish kabi moslashuvchan va maxsus koʻnikmalarni intensiv tarkib toptirish jarayonlarining dinamikligiga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan Fargʻona davlat universitetida bajarilgan PZ-20170930223-raqamli “Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2080/04-son maʼlumotnomasi). Natijada, oliy taʼlim muassasalaridagi talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik mohiyati va ijtimoiy zarurati aniqlashtirilib, metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirishning nazariy imkoniyatlari kengaytirilgan;

talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishga doir axloqiy, ijodiy, kasbiy, kommunikativ, tashkiliy kompetensiyalar tizimi mazkur jarayon tuzilmasiga xos motivatsion-shaxsiy (barqaror ijobiy motivatsiya), operatsion-faoliyatli (zarur sifatlarga ega boʻlish), nazorat-baholovchi (liderlik sifatlari va kasbiy faoliyat talablari uygʻunligini taʼminlash) komponentlarning qayta aloqaga kirishuv darajasi identivligini taʼminlash asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining oliy taʼlim muassasalarida yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirishga doir dastur va loyihalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2024-yil 7-maydagi 04-13/450-son dalolatnomasi). Natijada oliy taʼlim muassasalari talaba-yoshlarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari tavsiflanib, tashkiliy-texnologik tizimi takomillashtirilgan;

talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishga taʼsir koʻrsatuvchi ijtimoiy-pedagogik, psixologik-korreksion, ijodiy-texnologik, tarbiyaviy-maʼnaviy, kommunikativ omillar mazkur jarayonni amalga oshiruvchi toʻsiqlarni (psixologik, individual, muhit bilan bogʻliq) bosqichma-bosqich korreksiyalash mexanizmining produktivlik darajasi validligini bevosita hisobga olish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Namangan davlat universitetida bajarilgan KA 107/2020-2021-raqamli NamDU va Timisoara Gʻarb universiteti oʻrtasida tuzilgan “Erasmus+mobility program” xalqaro loyihasi doirasida foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2080/04-son maʼlumotnomasi). Natijada, pedagogik-psixologik treninglar majmuini qoʻllashning talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishdagi samaradorligini oshirishga erishilgan.

talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirish modelining tashkiliy-jarayonli komponenti “talaba – tyutor – o‘qituvchi”, “talabalar guruhi – tyutor – o‘qituvchi” tizimidagi o‘zaro birgalikdagi harakatni (kooperatsiya) shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishga qaratilgan rolli o‘yinlar, munozara va disputlarni kouch-trening texnologiyasi tamoyillari asosida adaptiv loyihalash tuzilmasini qat’iy belgilash asosida takomillashtirishga oid amaliy taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan dasturning 14-bandida belgilangan “Iqtidorli yoshlar orasidan yangi avlod zaxira kadrlarini shakllantirishga qaratilgan “Kelajak liderlari” loyihasini amalga oshirish” vazifalarini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublika Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 18-avgustdagi 4-13-21-2135-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishda o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, tyutorlar instituti va jamoat tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsad, vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarga muvofiqligi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e‘lon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi borasidagi ma’lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning “**Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning nazariy, ilmiy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik mohiyati va ijtimoiy zarurati, talabalardagi liderlik qobiliyatining pedagogik-psixologik xususiyatlari, talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish borasida xorijiy davlatlar tajribasini tahliliy o‘rganish masalalari yoritib berilgan.

Pedagogika ensiklopediyasida “lider” (ing. leader – yetakchi, boshliq, rahbar) tushunchasiga “pedagogik jamoada o‘zining shaxsiy sifat, fazilatlar bilan jamoa a‘zolariga o‘z ta‘sirini o‘tkaza oladigan, rejalash, tashkilotchilik, o‘ziga ergashtira

olish, nazorat etish kabi qobiliyatlari rivojlangan shaxs” sifatida ta’rif berilgan.

Hozirgi vaqtgacha talabalarda liderlik qobiliyatining mazmuni, nazariy-metodologik asoslari, pedagogik-psixologik xususiyatlari va amaliy jihatlariga doir xorijiy mualliflar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Mavzuning qamrovi ham, o‘rganilish darajasi ham keng. Xususan, amerikalik olimlar U.Bennis va B.Nanuslarning uzoq yillik ilmiy tahlillari natijasiga ko‘ra, liderlikning 850 dan ortiq ta’riflari mavjudligi va ushbu mavzu doirasida minglab empirik izlanishlar olib borilganini ilmiy tadqiqotlarida keltirib o‘tgan. Nyu-Yorkning Bingemton davlat universiteti professori B.M.Bassning qayd etishicha, lider va liderlik xususida o‘tgan asrning o‘zida 11 000 dan ortiq kitob va maqolalar chop etilgan.

Liderlik fenomenining sharqona tahlilida o‘ziga xos tarbiya, ezgu fazilatlar, axloqiy qarashlar va siyosiy yetakchilik sifatleri ustuvorlik qiladi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Nizomulmulk, Yusuf Xos Hojib, Unsurul Maoliy Kaykovus, Amir Temur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xusayn Voiz Koshifiy kabi Sharq mutafakkirlari ilgari surgan pedagogik g‘oya va qarashlar – bugungi kunda ham lider shaxsini tarbiyalash yuzasidan konseptual asosga ega va o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Buyuk allomalarimizning bu borada bildirgan har bir g‘oya va nuqtai nazari, talabalarning mustahkam bilim sohibi, professional ko‘nikmalar egasi va jamiyat hayotidagi barcha jabhalarda ilg‘or shaxs sifatida o‘rin topishida prinsiplial ahamiyatga ega ekani, bugun yana bir bor o‘z isbotini topdi.


Yoshlarda liderlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-metodologik tavsifi va pedagogik mexanizmlari xususida, shuningdek, “yetakchilik” tushunchalari haqida mahalliy mualliflar ham o‘z qarashlarini bildirganlar. Jumladan, S.T.Turg‘unov liderlik tushunchasini “ma’lum bir guruhda o‘zi rahbarlik qilayotgan yo‘nalishlarda shaxslararo (norasmiy) munosabatlarni boshqarib, guruh a‘zolarining kuchli va kuchsiz (nozik) tomonlari, ijobiy va salbiy odatlari, shuningdek, ularning psixologik xususiyatlari, kayfiyatlari, moyilligi, intilishlari, hamda qiziqishlarini yaxshi bilganligi natijasida jamoani muayyan yo‘nalishga boshlashga yo‘naltirilgan faollik” – deya, X.O.Qodirov “nostandart pedagogik vaziyatlarni hal etish uchun egallangan kommunikativ tashkiliy tajribadan mahoratli foydalanish hamda talabalar jamoasi barcha a‘zolarining uzluksiz shaxsiy o‘sislari rejimini ta‘minlash qobiliyatidir” tarzida, M.M.Zufarova “ma’lum ijtimoiy guruh, jamoa, insonlar birlashmasida boshqalarga nisbatan katta obro‘-e‘tiborga, ya‘ni avtoritetga ega bo‘lib, ularga nisbatan boshqarish darajasida ta‘sir ko‘rsata oluvchi shaxs, subyektning o‘zini lider sifatida tuta olish qobiliyatini shakllantirilishi jarayoni”, F.M.Komilova esa liderlikni mantiqan “tashkilotchilik” qobiliyatining muhim elementi sifatida tadqiq etgan holda, “Lider – yetakchi, u tashkilotchilik ishlaridan tashqari liderlik ishlari bilan ham shug‘ullanadi. Bu vazifani yaxshi uddalash uchun tashkilotchi, insonlarni o‘ziga ergashtirib borish qobiliyatiga ega bo‘lishi, ya‘ni lider vazifasini bajarishi lozim” deb hisoblaydi. Mazkur yondashuvlar tadqiq qilinayotgan mavzu mohiyatiga mos tarzda bo‘lgan.

Fikrimizcha, “yetakchi”, “tashkilotchi”, “sardor”, “lider” va “rahbar” kabi tushunchalar vazifa doirasi jihatdan adekvat bo‘lib ko‘rinsa-da, ularning semantik

tavsifi va xususiyatlari bir-biridan farq qiladi.

Tadqiqot doirasidagi izlanishlarimiz liderlik tushunchasi va uning xususiyatlarini mazmun jihatdan boyitish imkonini berdi va shu asosda mualliflik ta’rifi shakllantirildi. Bizningcha, **“talabalardagi liderlik – shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy faollik markazida turuvchi, original g’oya va tashabbuslarni ilgari surish orqali o’z bilimi, qarashlari va faollik dinamikasi asosida yangi guruh yoki jamoaning shakllantirish jarayoniga xayrxohlik qiluvchi, ijtimoiy-pedagogik munosabatlarda dominantlik pozitsiyasida talabalar ommasiga umid bera oluvchi, yetaklovchi, ilhomlantiruvchi, yo’naltiruvchi va nazorat funksiyasini bajara oladigan, talabalarga xos nostandart vaziyatni mantiqiy sintez qila oladigan, emotsional-irodaviy tafakkurga ega progressiv shaxs xatti-harakatlarini ifoda etadi”**.

Liderlik qobiliyati mavjud bo’lgan talaba jamiyatdagi soha va tarmoqlarning kadrlar resursi hisoblanadi. Shuning uchun ham oliy ta’lim muassasalaridagi talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishdan avvalo jamiyatning o’zi manfaatdor bo’ladi. Tarbiyalangan liderlar orqali qaror qabul qilishda ikkilanayotgan, o’z maqsadi yo’lida dadil harakat qila olmayotgan, qat’iyat va ishonchi sust bo’lgan va tashqi muhitdagi turli ta’sirlarga tushib qolgan talabalarining motivlarini to’g’ri yo’naltirishga erishiladi. Natijada talabalardagi mavjud agressiv va boshqa salbiy holatdagi liderlik o’rnini, muvaffaqiyat va istiqbolga chorlovchi chinakam faol lider qiyofasi egallaydi. Ushbu ijtimoiy hodisa ham pedagogik jarayonlar va OTMning ijtimoiy-ma’naviy muhitida liderlik masalalarining nechog’li muhim ekanligini ifoda etadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishda oliy ta’limdagi ijtimoiy-ma’naviy muhitning o’rni va ahamiyati.

Auditoriyadan tashqari pedagogik jarayonlarda talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirish asosida akademik guruhlardagi tabiiy liderlar ko‘magida liderlikka moyil talabalarning potensial imkoniyatlarni yuzaga chiqarish mumkin. Bir talabaning liderligi boshqa bir talabaning motivatsiyasiga sabab bo‘ladi. Qolaversa, guruhlardagi tabiiy lider va norasmiy liderlarning faolliklarini umumlashtirish, qo‘llab-quvvatlash, ularning tashabbuslaridan maqsadli foydalanish tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Liderlik hodisasi faqatgina shaxsning dominantlik sifatleri va uning xatti-harakatlaridagi ilg‘orlikdangina iborat emas. Shaxsdagi liderlik qobiliyati uning bilimi, ijtimoiy xulq-atvori, individual imkoniyatlari, tashkiliy-kommunikativ sifatleri, kompetentlik darajasi hamda kasbiy motivlarining uzluksiz ravishda takomillashib borishini nazarda tutuvchi pedagogik jarayondir. Shaxs o‘zining liderlik qobiliyati orqali jamiyat hayotida ijtimoiy faollikni kasb etadi. Shaxslararo munosabatlarda intellektual imkoniyatlari va emotsional-irodaviy xususiyatlari ko‘magida nafaqat o‘zini-o‘zi rivojlantiradi, balki, atrofdagilarga ijtimoiy-pedagogik ta‘sir ko‘rsatib, yetaklovchi, yo‘lboshchi funksiyasini amalga oshiradi.

Rossiyalik professor, pedagogika fanlari doktori N.P.Puchkovning fikricha, pedagogik shartlar asosida talabada liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali uning boshqa sifatlarini birlashtirish va salohiyatining asosiy xususiyatlari faollashtirish mumkin.

Nazarimizda N.P.Puchkovning qarashlari asosli, chunki talabalarning liderlik qobiliyati doirasidagi kompetensiyalarni tarbiyalash jarayoni, ulardagi yashirin iqtidorlarni yuzaga chiqarish, jamiyatning o‘zgaruvchan talablariga mos holatdagi bilim, moslashuvchan hamda maxsus ko‘nikmalarni shakllantirishda asosiy omil va turtki vazifasini o‘taydi.

Sohaga oid tadqiqotlar va empirik faoliyat asosidagi kuzatishlar natijasida talabalardagi liderlik qobiliyatining tarkibiy komponentlari ajratilib, unga oid kompetensiyalar quyidagicha guruhlandi:

Axloqiy kompetensiyalar – madaniyatlilik, mas’uliyatlilik, o‘zini tuta bilish, o‘zini-o‘zi anglash, mehnatsevarlik, olijanoblik, shaxsiy namuna bo‘lish, halollik;

Ijodiy kompetensiyalar – kreativlik, aqllilik, keng dunyoqarash, nostandart fikrlash, natijadorlik, zukkolik, moslashuvchan ko‘nikmalar (soft skills);

Kasbiy kompetensiyalar – boshqaruv ko‘nikmalari, nazariy va amaliy tayyorgarlik, strategik fikrlash, jamoa shakllantirish va boshqarish, vazifalarni taqsimlash, nostandart vaziyatlarda qaror qabul qila olish, vaqtni boshqarish, ilhomlantirish, intizomlilik, qat’iyatlilik;


Kommunikativ kompetensiyalar – notiqlik, xushmuomilalik, tizimli fikrlash, mantiqiy izchil so‘zlash, nutq madaniyati, auditoriyani boshqarish, fasilitatsion mahorat, muloqotga kirishuvchanlik, manipulyatsiya qobiliyati, xarizma, tolerantlik;

Tashkiliy kompetensiyalar – faollik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, tezkorlik, tizimli tahlil qobiliyati, ishchanlik, ijtimoiy faollik, ishbilarmonlik.

Talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirish o‘ziga xos amaliyot, vaqt va tajriba talab etadi. Pedagogik jarayonlarda talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirib borish u xoh dars vaqtida, xoh fakultativ kurslar asosida auditoriyadan

tashqari holatda bo'lsin muhim maqsadli jarayon sifatida qaralishi lozim. Chunki bugun talaba shaxsiga va xarakteriga qaratilgan pedagogik va psixologik ta'sir, uning kelajakdagi muvaffaqiyatli professional faoliyatini ta'minlaydi.

Liderning shakllanishi uchun qator ijtimoiy-pedagogik va psixologik omillar ta'siri ko'zga tashlanadi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning oliy o'quv yurtlarida talabalarga o'z qobiliyatlarini to'laqonli yuzaga chiqarish, kasbiy va hayotiy zarur ko'nikmalarini egallashlari uchun erkin ijodiy muhit yaratiladi. Xususan, talabaning o'tmishdagi muvaffaqiyatsizliklari va yutuqlarining tahlil qilishiga oid tajriba o'tkazadi. Amaliy keyslar asosida turli mashqlar, rolli o'yinlar, munozara, disputlar va simulyatsiyalardan foydalangan holda talabani mulohaza yuritish, vaziyat bo'yicha

tegishli xulosalar qilish va xatolardan saboq chiqarish imkoniyati yaratiladi. Talabalardagi yumshoq mahoratlar (soft skills)ni oshirib borishga bosh maqsadlardan biri sifatida qaraladi.

Soft skills – (ing. – moslashuvchan, yumshoq ko‘nikmalar) muayyan kasbga taalluqli bo‘lmagan, akademik va professional muvaffaqiyatiga xizmat qiluvchi, ijtimoiy martaba va shaxslararo samarali munosabatlarning mustahkamligini ta‘minlovchi shaxsiy qobiliyat va ko‘nikmalar yig‘indisidir.

Xorijiy davlatlar tajribasiga ko‘ra, lider qaysi yo‘nalishda namoyon bo‘lishidan qat‘i nazar, quyidagi qobiliyat va sifatlarga ega bo‘lishi talab etiladi:

1. Barcha ruhiy ta‘sir etish bilimlarini jamlagan emotsional intellekti (EI)ning mavjud bo‘lishi;

2. Guruh yoki jamoa a‘zolari orasida o‘zining eruditsiyasi va ko‘nikmalarini birgalikda baham ko‘rishi, targ‘ib qilishi va muayyan maqsadga yo‘naltirishda foydalana olishi;

3. Kommunikativligi va samarali muloqotni amalga oshirishni uddalay olishi;

4. Ma‘lum bir vazifani amalga oshirishda unga tegishli tajribani egallaganligi va bajarish jarayonida shaxsiy namuna bo‘la olishi;

5. Jamoa a‘zolari orasida adolatni ta‘minlay olishi va umumiy manfaatga erishish orqali jamoaning har bir a‘zosi manfaatini ifoda eta olishi;

6. Jamoa oldidagi mushtarak ezgu maqsadga yo‘naltirilgan vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash va bajarilishini nazorat qila olish san‘atini egallaganligi;

7. “Time management”ga qat‘iy rioya etishi, vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olishi;

8. O‘zini-o‘zi doim tahlil qila olish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning **“Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik tizmi”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, liderlik qobiliyatini rivojlantirishda yoshlar tashkilotlarining faoliyatida hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish hamda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar va treninglar vositasida talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish masalalari yoritib berilgan.

Talabalarda o‘zini-o‘zi takomillashtirib borishiga qaratilgan barcha harakatlar tizimi avvalo uning xohish-irodasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va albatta shaxsiy bilim olishi bilan tarkib topadi. Kuzatishlar natijasida ayrim talabalarda mavjud tor doiradagi liderlik sifatlari beihitoyor o‘zlaridan qoniqish hissini paydo qiladi. Bu esa ulardagi bilim olish va shaxsiy rivojlanishga bo‘lgan mayllarni cheklab qo‘yadi. Lider qiyofasini yaratish avvalo talabaning shaxsiy motivi va uning ijtimoiy-psixologik holatiga bog‘liq. Nazariy o‘quv, amaliy tavsiya va ko‘nikmalarni ifoda etuvchi har qanday metodlar talabaning shaxsiy rivojlanish va intellektual sifatlarini harakatga keltiruvchi vositadir. Har qanday holatda talaba o‘z shaxsini rivojlantirish, qobiliyat va yashirin iste‘dodlarini yuzaga chiqarishdagi birlamchi mas‘uliyatni o‘zida topishi darkor. O‘zida ishonch, optimizm va irodani his etgan, o‘z pozitsiyasiga ega lider shaxsini tarbiyalash istagidagi har bir talabadan ushbu pedagogik jarayonlarda faollik talab etiladi.

Talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirish modelining o‘ziga xosligi talabalardagi odatlarni tizimlashtirish, shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini belgilab

olishiga sharoit yaratish, mustaqil mutolaa ko'nikmalarini mustahkamlab borish asosidagi ijtimoiy faolligini oshirish jarayonida ko'zga tashlanadi.

Birinchiidan, pedagogik faoliyatning mahsuldorligi foydali odatlar asosida shaxsni tarbiyalash, xulq-atvoriga ijobiy ta'sir o'tkazish, ruhiy holatini mustahkamlash va xatti-harakatlarini tartibga solish jarayonlarida yuzaga chiqadi. Talabalardagi addiksiya va xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarni kuzatish, individual o'rganish natijasida ular o'zlashtirgan odatlarni korreksiya qilish asosida liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga muvaffaq bo'lish mumkin. Mazkur pedagogik jarayonlar quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi:

1. Odatlarning tabelini shakllantirish;
2. Istaklar rejasini tuzish;
3. Odatlarni tizimlashtirish;
4. Pozitiv kayfiyat va motivatsiyalash;
5. Liderlikni rivojlantirish;
6. Texnik imkoniyatlardan foydalanish;
7. Cheklov va nazoratni kuchaytirish.

Ikkinchiidan, oliy ta'lim muassasalaridagi akademik guruhlariga biriktirilgan tyutor o'ziga tegishli talabalar jamoasini kichik guruhlariga ajratgan holda "aylanma liderlik" dasturi bilan har bir talabaning liderlik qobiliyatini namoyon etishga imkon yaratadi. Dastur yakuniga qadar jamoadagi har bir talaba lider maqomida bo'lib, haftalik faoliyatini yuritishga muvaffaq bo'ladi (jamoada nechta akademik guruh soniga mos ravishda liderlar tayinlanadi). Bu usul ixtiyoriy faollik, hamkorlik, motivatsiya va majburlov tamoyillari asosida talabaga o'zini ko'rsatish va jamoada hurmat qozonishi uchun yordam beradi.

Liderlik qobiliyatini rivojlantirish, talabaning ishchanlik kayfiyati, kasbiy kompetensiyalari, muloqot ko'nikmalari va konfliktga barqarorlik darajasini mustahkamlamay turib amalga oshirish ko'zlangan natijani bermaydi. Shuning uchun har hafta lider maqomidagi talaba o'z loyiha mavzusi yuzasidan tegishli tashkilot, korxon va muassasalarga ma'lumot va axborot almashinish uchun amaliyotga chiqadi, o'z ustida ishlaydi. Haftalik faoliyat yakuni yuzasidan liderlar o'z o'quv-amaliyot yo'nalishidan kelib chiqib, o'zlariga biriktirilgan mavzular yuzasidan guruhiy izlanishlar natijasi sifatida loyiha taqdimotini o'tkazadilar. Tyutorlar lider talabaning haftalik faoliyati monitoringini yuritib, loyiha ishi doirasidagi harakati va taqdimotini maxsus indikatorlar asosida baholab boradi.

Uchinchiidan, liderlik qobiliyatini rivojlantirishga doir pedagogik jarayoning muhim komponenti bu talabalar o'rtasida kitobxonlik muhitini yaratish, ularning o'quv va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish ko'nikmasini oshirish, mustaqil mutolaa asosida o'zlashtirgan bilimlarini shaxsiy hayot, kasbiy faoliyat va tajriba uyg'unligida qo'llashga o'rgatishdir. Metodik jarayonlarda kitoblarning rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi imkoniyatidan foydalanish yaxshi natija beradi. Kitob vositasidagi ta'lim, talabaning potensial mahsuldorligiga hissa qo'shadi, mantiqiy fikrlash, kreativlik va liderlik xarakterining takomiliga xizmat qiladi.

Talabalarda mustaqil bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirish o'z navbatida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini oshirishga asoslangan o'quv materiallari bilan ta'minlashni, mutolaa madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi. Shu

ma'noda, talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishga oid ilmiy-ommabop (bestseller) kitoblarni mutolaa qilishga o'rgatish va mustaqil o'qish uchun adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqildi. Kitoblarni tanlashda ularning mazmuni, badiiy qiymati, zamonaviy tendensiyalarga mos bo'lishi va ta'lim-tarbiya maqsadlarini ifoda etishiga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'lim jarayonida bevosita ijtimoiy-pedagogik hamkorlik asosida o'quv-mashg'ulotlaridan tashqari vaqtlarda ijtimoiy institutlarning o'z maqsad-vazifalarini amalga oshirishlari talabalarning ijtimoiy faolliklarini oshirishga, ularni bugunning lideri sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu sa'y-harakatlarning samarasi esa OTMning ma'naviy-ma'rifiy va yoshlar bilan ishlash tizimi faoliyatini takomillashtirish orqali namoyon bo'ladi. Bugungi kunda Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, siyosiy partiyalarning "Yoshlar qanoti" tuzilmalari, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Qizlar ovozi" klubi, "Yosh olimlar" jamiyati, "Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi, "Vatanparvar" tashkiloti, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi qoshidagi "Kelajak liderlari" klubi, O'zbekiston volontyorlar assotsiatsiyasi, "Yuksalish" umummilliy harakati, kasaba uyushmasi, yoshlar markazlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar o'z vakolati doirasida o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi.


Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslari va pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishda aynan yoshlar tashkilotlari, xususan, O'zbekiston yoshlar ittifoqi bilan ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi pedagogik hamkorlikni mustahkamlash tadqiqot modelining asosini tashkil etadi. Interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlar orqali talabalarning faolligini kuchaytirish, liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish, boshqaruv mahoratlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlantiruvchi mashg'ulotlar va trening dasturi yakuni bo'yicha talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligini motivatsion rag'bat indikatorlari yordamida sinovdan o'tkaziladi (1-jadvalga qarang). Mazkur mexanizm talabalarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish asosida ularda fazilatlar tarbiyasi, liderlik qobiliyati rivoji hamda ko'ngilli ravishda jamiyatga xizmat qilish istagini mustahkamlash bo'yicha motivatsion rag'bat richagi vazifasini o'taydi.

Oliy ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya borasidagi hamkorlikni amalga oshirish asnosida har bir talabaning o'ziga xos ijtimoiy sifatlarini shakllanishi va yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan taktik faoliyatni amalga oshiradi. Shu ma'noda talabalar orasida yoshlar kengashining boshlang'ich tashkiloti – liderlik qobiliyatini shakllantiruvchi va uni takomillashtirishga xizmat qiluvchi sinalgan mexanizm sifatida qayd etilgan.

Tadqiqot ishi doirasida oliy ta'lim muassasalari talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirishga oid model ishlab chiqildi (3-rasmga qarang).

Ushbu modelda belgilangan vazifalarni, barcha komponentlarga doir jarayonlarning uyg'unligi bilan an'anaviy va interfaol ish shakllari integratsiyasini ta'minlash asosida samarali amalga oshirishga erishish mumkin. O'zini-o'zi boshqarish organlari, tyutorlar instituti va NNTlar bilan tizimlilik, integratsiya,

individuallashtirish, subyektivlik, rivojlantiruvchi, hamkorlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy rivojlantirish dasturi, talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslari va pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatini kengaytiradi.



3-rasm. Talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish modeli.

Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonining asosiy qismi auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar hissasiga to'g'ri keladi. Ular fan sohalarida olgan bilimlari va egallagan ko'nikmalarini amaliyotda mustaqil qo'llay olish imkoniyatini maxsus tashkil etilgan amaliy mashg'ulot va pedagogik treninglarda sinovdan o'tkazib, mustahkamlab boradilar. Talabalarga individual va jamoaviy vazifalarni berish orqali talabalarni tashkiliy va amaliy faoliyatga jalb qilinishi, maqsad sari oldinga intilishga qaratilgan sa'y-harakatlarga undash asosida tashkil etilishi, tadqiqotda kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga zamin yaratadi. Jamoada o'z o'rnini topishga bo'lgan motivatsiya orqali o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'zlashtiradi, hissiy-intellektual resurslaridan mustaqil foydalanishga o'rganadi. Liderlik qobiliyatini rivojlantirishga doir axloqiy, ijodiy, kasbiy, kommunikativ, tashkiliy kompetensiyalar tizimini esa volontyorlik faoliyati va talabalarning bevosita ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan loyihalardagi ishtiroki asosida shakllantiriladi.

1-jadval

Talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirish va motivatsion baholash indikatorlari

Vazifalarning mazmuni		Belgilangan kredit ball	Imtiyozlar mazmuni	Sarflanadigan kredit ball
Talabani bilimi, emotsional intellekti, ma'naviy dunyoqarashi, liderlik qobiliyatlari, texnologik (AKT) savodxonligi va professional ko'nikmalari mustahkamlashga oid haftalik test jarayonlaridagi ishtiroki uchun		10 ball	Viloyatdagi axborot resurs markazlari fondidan bepul foydalanish	30-40 ball
Ilmiy konferensiya, olimpiada, innovatsion dasturlardagi ishtiroki uchun	ishtirok uchun	10 ball	Davlat organlari va tashkilotlarida (mutaxassislik yo'nalishiga qarab) stajirovka o'tash	40-60 ball
	g'oliblik uchun	15 ball		
Yoshlar tashkilotlari, Yoshlar ishlari agentligi va Yoshlar ittifoqining Respublika, hududiy, mahalliy Kengashlari faoliyatidagi ishtiroki uchun		10 ball	Yoshlar ishlari agentligi tomonidan talabani faolligi uchun o'qish joyiga tashakkurnoma yuborish	40-50 ball
Uchrashuv, ochiq muloqot va davra suhbatlaridagi muntazam ishtiroki uchun		5 ball	OTMning rasmiy veb saytida talabani faoliyatiga oid avtobiografik maqola joylashtirish	40-45 ball
Fan-ta'lim va yoshlarga oid markaz, klub va to'garaklardagi faoliyati	a'zo sifatidagi ishtiroki	5 ball	Viloyat turizm obyektlariga ekskursiyalar uyushtirish	60-80 ball
	rahbar sifatidagi ishtiroki	10 ball		
Volontyorlik faoliyati va yoshlar (xayriya) aksiyalarini tashkil etganligi uchun		15 ball	Bestseller kitoblar to'plami sovg'asi	60-100 ball
Talabani o'qigan kitoblari uchun (o'qilgan har bir kitob uchun)		20 ball	Talabani ota-onasi (yaqinlari)ga tashakkurnoma yuborish	100-120 ball
Shaxsiy tashabbusi asosida tashkil etgan loyiha, o'quv-seminar, tanlov yoki tadbirlari uchun		20 ball	Talabani liderlik faoliyati bo'yicha rolik tasvirga olish, OTM rasmiy sahifalarda ommalashtirish	100-120 ball

Yoshlar loyihalari, intellektual tanlovlar va grantlarda ishtiroki uchun	OTM bosqichida ishtirok uchun	5 ball	OTM rektori bilan bir piyola choy ustida suhbat (tet-a-tet)	120-140 ball
	g'oliblik uchun	10 ball		
	Hududiy va Respublika bosqichida ishtirok uchun	15 ball		
	g'oliblik uchun	15 ball		
Liderlik va ijtimoiy-pedagogik faoliyatini televideniye va bosma nashrlar (gazeta va jurnallar)da yoritilganligi uchun	1 dona material uchun	5 ball	Ta'lim muassasasida talabaning faolligini ifoda etuvchi katta hajmli yorliq (banner) joylashtirish	200-260 ball
	2 dona material uchun	10 ball		
	3 dona va undan ortiq material uchun	15 ball		
Jamoaviy sport musobaqalaridagi ishtiroki uchun	ishtirok uchun	10 ball	"Lider talaba" ko'krak nishoni bilan taqdirlash (qo'shimcha ijtimoiy imtiyozlar ega bo'lish)	260-280 ball
	g'oliblik uchun	15 ball		
Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy liderlik qobiliyatlarini ifoda etuvchi motivatsion kontentlarni joylashtirib borganligi uchun		25 ball	Liderlik va shaxsiy rivojlanishga oid treninglarda ishtirok etish (Modul-5, M-factor va boshqalar)	280-320 ball
Yangi liderlar jamoasini shakllantirganligi uchun	10 nafar talabadan iborat jamoa uchun	15 ball	"Rektor stipendiyasi" sohibi bo'lish	320-350 ball
	15 va undan ko'p talabalardan iborat jamoa uchun	20 ball		

Izoh: da'vogar talaba mazkur baholash indikatorining bir bandida keltirilgan barcha qatorlar bo'yicha natijalarga erishgan bo'lsa, belgilangan ballning eng yuqorisi inobatga olinadi.

Demak muhim pedagogik qonuniyatlar asosida oliy ta'limda yoshlar tashkilotlarining ta'lim-tarbiya integratsiyasini mustahkamlash, yoshlarga oid loyiha va tadbirlarni tizimli tashkil etish, talabalar kengashi va yetakchilik muhitidagi eksperimental faoliyat hamda o'zini-o'zi boshqarish tamoyili orqali professional ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar – talabalarda liderlik qobiliyatlari vujudga kelishiga imkoniyat yaratadi.

